ILG‘OR IQTISODIYOT VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR
ILMIY ELEKTRON JURNAL

UO‘K: 657.47:657.4:339.9

TANNARX BUXGALTERIYA HISOBINING METODI HAMDA XALQARO TAJRIBALAR VA ULARNI QO‘LLASH MASALALARI

Tashnazarova Dilfuza
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
ORCID: 0009-0003-0575-2818
dilfuza11122000@mail.ru

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tannarxni buxgalteriya hisobining metodi sifatida shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari, uning iqtisodiy mazmuni va korxonalar faoliyatini boshqarishdagi ahamiyati tadqiq etilgan. Tannarxni shakllantirish jarayonida xarajatlarni aniqlash, tasniflash, guruhlash, taqsimlash, baholash va tegishli kalkulyatsiya obyektlariga biriktirishning o‘zaro bog‘liqligi tizimli yondashuv asosida ochib berilgan. Xalqaro miqyosda tan olingan kalkulyatsiya usullari, jumladan, to‘liq xarajatlar bo‘yicha kalkulyatsiya, o‘zgaruvchan xarajatlar bo‘yicha kalkulyatsiya, faoliyat turlari bo‘yicha kalkulyatsiya, me’yoriy kalkulyatsiya, buyurtmali kalkulyatsiya, jarayonli kalkulyatsiya, maqsadli kalkulyatsiya va hayotiy sikl bo‘yicha kalkulyatsiyaning uslubiy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida tannarxni faqat ishlab chiqarish xarajatlarining yig‘indisi sifatida emas, balki xarajatlarni hisobga olish, baholash, nazorat qilish, tahlil etish va boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta’minlashga xizmat qiluvchi kompleks buxgalteriya hisobi metodi sifatida takomillashtirish zarurligi asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *xarajat, buxgalteriya hisobi, xarajatlar hisobi, tannarxni kalkulyatsiya qilish, ishlab chiqarish xarajatlari, xalqaro tajriba, to‘liq xarajatlar bo‘yicha tannarxni kalkulyatsiya qilish, faoliyat turlari bo‘yicha xarajatlarni hisoblash, me’yoriy tannarxni kalkulyatsiya qilish, maqsadli tannarxni kalkulyatsiya qilish, jarayonlar bo‘yicha tannarxni kalkulyatsiya qilish, boshqaruv hisobi.*

СЕБЕСТОИМОСТЬ КАК МЕТОД БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА, МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ВОПРОСЫ ЕГО ПРИМЕНЕНИЯ

Ташназарова Дилфуза
Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация. *В статье исследованы теоретико-методологические основы формирования себестоимости как метода бухгалтерского учета, ее экономическое содержание и значение в управлении деятельностью предприятий. На основе системного подхода раскрыта взаимосвязь процессов идентификации, классификации, группировки, распределения, оценки затрат и их отнесения на соответствующие объекты калькулирования. Проведен сравнительный анализ методологических характеристик международно признанных методов калькулирования, включая калькулирование с полным включением затрат, калькулирование по переменным затратам, калькулирование по видам деятельности, нормативное калькулирование, позаказное калькулирование, попроцессное калькулирование, целевое калькулирование и калькулирование затрат жизненного цикла. По результатам исследования обоснована необходимость совершенствования себестоимости не только как совокупности производственных затрат, но и как комплексного метода бухгалтерского учета,*

обеспечивающего учет, оценку, контроль и анализ затрат, а также информационную поддержку управленческих решений.

Ключевые слова: *затраты, бухгалтерский учёт, учёт затрат, калькулирование себестоимости, производственные затраты, международный опыт, калькулирование себестоимости с полным включением затрат, учёт затрат по видам деятельности, калькулирование нормативной себестоимости, калькулирование целевой себестоимости, попроцессное калькулирование себестоимости, управленческий учёт.*

COST AS A METHOD OF ACCOUNTING, INTERNATIONAL EXPERIENCE AND ISSUES OF ITS APPLICATION

Tashnazarova Dilfuza
Samarkand Institute of Economics and Service

Abstract. *The article examines the theoretical and methodological foundations of cost formation as a method of accounting, its economic substance, and its significance for enterprise management. Based on a systematic approach, the study identifies the interrelationship between cost identification, classification, grouping, allocation, measurement, and attribution to relevant costing objects. A comparative analysis is conducted of the methodological characteristics of internationally recognized costing methods, including absorption costing, variable costing, activity-based costing, standard costing, job costing, process costing, target costing, and life-cycle costing. The findings substantiate the need to improve cost accounting not merely as an aggregate of production costs, but as an integrated accounting method that ensures the recognition, measurement, control, and analysis of costs and provides relevant information for managerial decision-making.*

Keywords: *cost, accounting, cost accounting, costing, production costs, international experience, absorption costing, activity-based costing, standard costing, target costing, process costing, management accounting.*

Kirish.

Bugungi kunda iqtisodiyotda raqobat muhitining kuchayishi, ishlab chiqarish jarayonlarining texnologik jihatdan murakkablashuvi, resurslardan foydalanish samaradorligiga qo‘yilayotgan talablarning ortishi hamda korxonalar faoliyatida raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi sharoitida xarajatlarni boshqarish va mahsulot tannarxini obyektiv shakllantirish masalasi alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Korxonaning moliyaviy natijalarini to‘g‘ri aniqlash, mahsulotlarning raqobatbardoshligini baholash, narx siyosatini shakllantirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda tannarx to‘g‘risidagi axborot muhim iqtisodiy axborot manbalaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda tannarxni shakllantirish va xarajatlarni boshqarishning turli usullari shakllangan. Jumladan, absorption costing, variable costing, activity-based costing, standard costing, job costing, process costing, target costing va life-cycle costing usullari korxonalarning ishlab chiqarish xususiyatlari va boshqaruv ehtiyojlaridan kelib chiqib qo‘llaniladi. Mazkur usullar bir-biridan xarajatlarni identifikatsiyalash, taqsimlash, mahsulot tannarxiga kiritish va boshqaruv qarorlaridan foydalanish mexanizmlari bilan farqlanadi. Xususan, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari doirasida zaxiralarni baholash va tannarxni aniqlash masalalari IAS 2 “Inventories” standarti bilan tartibga solinadi. Mazkur standartga muvofiq zaxiralar tannarxiga xarid qilish xarajatlari, qayta ishlash xarajatlari hamda zaxiralarni mavjud joyi va holatiga keltirish bilan bog‘liq boshqa xarajatlar kiritiladi. Qayta ishlash xarajatlari tarkibida bevosita mehnat xarajatlari bilan bir qatorda ishlab chiqarishning doimiy va o‘zgaruvchan ustama xarajatlarini tizimli ravishda taqsimlash nazarda tutiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Tannarxni shakllantirish, hisobga olish va kalkulyatsiya qilish masalalari ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng o‘rganilgan. Xorijiy olimlardan Charles Horngren (2018) xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini aniqlash masalalariga alohida e’tibor qaratib, xarajatlarni turli belgilari bo‘yicha tasniflash va ularni kalkulyatsiya obyektlariga taqsimlashning metodologik asoslarini yoritgan. Colin Drury (2021) esa tannarxni shakllantirishning zamonaviy usullarini, xususan, absorption costing, marginal costing, standard costing va activity-based costing tizimlarini tadqiq etib, ularning boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi ahamiyatini asoslagan.

Zamonaviy yondashuvlar nuqtayi nazaridan Robert Kaplan (Garrison, 2021) va Robin Cooper (1998) tomonidan ishlab chiqilgan Activity-Based Costing (ABC) tizimi tannarxni aniqroq shakllantirish va bilvosita xarajatlarni faoliyat turlari hamda xarajat drayverlari asosida taqsimlashning samarali vositasi sifatida e’tirof etiladi. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, an’anaviy taqsimlash bazalaridan foydalanish ayrim hollarda mahsulotlar tannarxining buzib ko‘rsatilishiga olib kelishi mumkin, ABC tizimi esa xarajatlarni ularni yuzaga keltiruvchi faoliyatlar asosida taqsimlash orqali mahsulot tannarxining aniqligini oshirish imkonini beradi.

O‘zbekistonlik olimlardan Xasanov (2003), Maxsudov (2018), Abdusalomova (2019), Tashnazarov (2018), Avloqulov (2004) va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida buxgalteriya hisobi, xarajatlar hisobi, mahsulot tannarxini aniqlash, kalkulyatsiya va xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini milliy amaliyotga joriy etish masalalari yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida tannarxni shakllantirishda xarajatlarni to‘g‘ri tasniflash, hisobga olish va taqsimlash, shuningdek, moliyaviy hisobot axborotlarining ishonchliligini ta’minlash masalalari muhim o‘rin egallaydi.

Shuningdek, IAS 2 “Inventories” standarti doirasida zaxiralar tannarxini aniqlash, qayta ishlash xarajatlarini hisobga olish, doimiy va o‘zgaruvchan ishlab chiqarish ustama xarajatlarini normal ishlab chiqarish quvvatidan kelib chiqib tizimli ravishda taqsimlash hamda zaxiralarni tannarx va sof realizatsiya qiymatining eng pasti bo‘yicha baholash tamoyillari belgilangan. Mazkur xalqaro talablar tannarxni shakllantirish metodologiyasini takomillashtirish va milliy buxgalteriya amaliyotini xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish uchun muhim nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Fanning metodologik asoslari deganda, shu fanning predmetini o‘rganishda qo‘llaniladigan ta’limot, yondashuvlar, metodlar va prinsiplarning majmuasiga tushuniladi.

Tannarx buxgalteriya hisobi predmetini tashkil qiluvchi obyektlar (segmentlar)ning har biri unda o‘ziga xos metodlar va usullar yordamida aks ettiriladi. Tannarx buxgalteriya hisobida qo‘llaniladigan metodlar va usullar moliyaviy hisobdagilarga nisbatan keng, turli-tuman, ta’sirchan, tezkor va samaralidir. Tannarx buxgalteriya hisobining muhim prinsiplaridan biri uning qonunda taqiqlanmagan har qanday usul va uslublardan hamda proseduralardan foydalanish mumkinligi bo‘lib hisoblanadi. Soliqlashtirish, koorupsiyani bartaraf etish, reklama va axborotlar hamda boshqa munosabatlarni tartibga soladigan qonunchilik talablari mutloq buzilmasligiga kafolat ta’minlangan bo‘lishi kerak. Eng muhim talabi qo‘llanilgan usul samarali, boshqaruv uchun maqbul bo‘lsin, to‘g‘ri taktik va statik qarorlar qabul qilish imkonini yaratsin, boshqa kompaniyalarning statusi va mavqyega noqonuniy ta’sir ko‘rsatmasin, halollik, to‘g‘rilik va adolat amal qilsin.

Tannarx buxgalteriya hisobining metodi – uning predmetini tashkil etuvchi ob’yektlarini qayd qilish, baholash, guruhlash, ishlov berish, identifikasiya qilish, hisobotlarni tayyorlash, tahlil qilish, uzatish, menejerlar qarorlarining muqobil variantlarini tayyorlash, rejalashtirish, narxlashtirish va axborotlarni saqlashda qo‘llaniladigan yondashuvlar, tizimlar hamda metod va usullarning yig‘indisidan iborat.

Tannarx buxgalteriya hisobida qo‘llaniladigan metod va usullarni tasnifini quyidagi jadvalda keltirishimiz mumkin (1-jadval).

Nomlari 1-jadvalda keltirilgan metodlar va usullar korxonalar Tannarx buxgalteriya hisobining integrallashgan tizimida turli maqsadlarda qo‘llaniladi. Chunonchi, buxgalteriya hisobi metodini tashkil qiluvchi barcha usullar javobgarlik markazlarida yuz bergan va berayotgan jarayonlar, ularning natijalarini aniqlash, baholash, ular to‘g‘risidagi axborotlarni yig‘ish, guruhlash, jamlash va boshqaruvchilarga yetkazishda foydalaniladi.

1-jadval

Tannarx buxgalteriya hisobida qo‘llaniladigan metod va usullar

Qo‘llanilish jabhasi	Metod va usullarning nomi
Umumtan olingan bilishning falsafiy kategoriyalari hamda metodlari	Tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, makon va zamon, sabab va oqibat, shakl va mazmun, miqdor va sifat, tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, tizimli tahlil, tadqiqot obyektlarini o‘zaro bog‘liqlikda va taraqqiyotda deb qarash
Iqtisodiy operasiyalar, jarayonlar va bajarilishlarni tan olish, qayd qilish, tasniflash, guruhlashda qo‘llaniladigan usullar	Tan olish mezonlari asosida identifikasiya qilish, operasiyalarni yuz bergan sanasida qayd qilish uchun hujjatlashtirish, hujjatlarni iqtisodiy mazmuniga ko‘ra jurnal va kitoblarda qayd qilish, iqtisodiy operasiyalarni ma’lum bir mezonlari va belgilari asosida tasniflash, obyektlar to‘g‘risida foydali axborotlar tayyorlash uchun ularni tashkil etuvchi elementlariga guruhlash
Baholash yondashuvlari, tizimlari va umume’tirof etilgan usullari	Bozor yondashuvi, daromadli yondashuv, tannarx yondashuvi, hisoblash metodi, boshlang‘ich (dastlabki) qiymat, tannarxi bo‘yicha aks ettirish, haqiqiy xarajatlar usuli, adolatli (bozor) qiymati, sotishga qobiliyatli qiymat, balans (qoldiq) qiymati, sotish narxi, chakana narx metodi, ekvivalent miqdori tannarxi metodi, amortizasiyalanadigan qiymati metodi, eng kichik qiymatda baholash usuli, realizasiyaning bo‘lishi mumkin bo‘lgan sof qiymati metodi, operasiya narxi, kutilayotgan qiymat metodi, eng ehtimolli qiymat metodi, bajarilgan ishlar metodi, amalga oshirilgan xarajatlar metodi, fikslashgan bahodagi shartnoma, xarajat plyus shartnomasi, foizlarning samarali stavkasi metodi, maxsus identifikasiyalash metodi, FIFO, o‘rtacha salmoqli, LIFO, NIFO, davriy tizim usuli, uzluksiz tizim usuli, zaxiralarning optimal miqdorini aniqlash usuli, davomiy baholash usullari, likvidasion qiymat, bir maromda taqsimlash usuli, ishlab chiqarilgan miqdor, sum-raqam usuli, qoldiqni kamaytirish usuli, haqiqiy tannarxi bo‘yicha hisob modeli, qayta baholangan qiymat bo‘yicha hisob modeli, qoplanadigan qiymatni baholash, investisiyalarni hissali qatnashish metodi asosida baholash, olinadigan schetlarni sof qiymatda aks ettirish usuli
Buxgalteriya hisobida ma’lumotlarga ishlov berish, ma’lumotlarning realligini tekshirish, hisobotlarni tuzishda qo‘llaniladigan an’anaviy (umume’tirof etilgan) usullari	Buxgalteriya schetlari, ikkiyoqlama yozuv, jurnallashtirish, bosh kitob, hisob shakllari, hujjatlar va hujjatlar aylanishi tizimi, dasturiy ta’minot, dasturiy ta’minotning mobil ilovasi, hisob siyosati, ishchi schetlar rejasi, inventarizasiya, pul oqimlari hisobotini bevosita va bilvosita usullari, buxgalteriya balansini vertikal va gorizantal usullarda tuzish, transformasion treyl balans, transformasiya formulalari, konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobot usullari, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni xarajatlarning xususiyati bo‘yicha va xarajatlarning mo‘ljallanganligi bo‘yicha tuzish usullari
Costing (kosting) tizimlari va usullari	Tannarx akkumlyasiyasi, Mahsulot birligining tannarxi, Tannarx-hajm-foyda tahlili (CVP), Kontributsiya yondashuvi, Grafik metod, Buyurtmali kosting tizimi (Job Costing System), Jarayonli kosting tizimi (Process Costing System), Normal kosting tizimi (Normal Costing System), Haqiqiy kosting (Actual Costing), Standart kosting (standard costing), Marginal costing, Proporsiya yondashuv (Propation Approach), Faoliyatga asoslangan kosting (Activity-Based Costing), Veriaybl kosting (Variable Costing), Abzorpshin kosting (Absorption Costing), Sanoat muhandislik metodi, Konferensiya metodi, Schetlar tahlili metodi, Miqdori tahlil metodi, Eng katta va eng kichik metod (High-Low method), Mini-maks metodi, Regression tahlil metodi, Maqsadli kosting (Target costing), Sotish qiymati va ajralish nuqtasi metodi (sales value and split off method), Miqdoriy o‘lchov metodi, sof sotish mumkin bo‘lgan qiymati, konstant yalpi marjin foizi metodi, FIFO, o‘rtacha salmoqli metod, Ayni vaqtida metodi (Just in Time).
Iqtisodiy tahlil, statistika, iqtisodiy matematik metodlar	Detallashtirish, tizimlashtirish, umumlashtirish, taqqoslash (solishtirish) metodi, tanlash va statistik kuzatish, mutloq miqdorlar, nisbiy miqdorlar,

	guruhlash, tanlab kuzatish metodi, indeks metodi, o‘rtacha salmoqli usul, grafika metodi, ehtimollik, prognozlashtirish usullari, muvozanat usuli, qayta hisoblash metodi, farqlash usuli, zanjirli almashtirish metodi, integral usul, farqli va nisbiy ko‘rsatkichlar usullari, teng taqsimlash usuli, regressiya va korrelyasiya usullari, dinamik qatorlar, diskriminant va kovariasion tahlil, sinergetik samara usuli, klaster tahlili, matematik dasturlash, monografik kuzatuv, SWOT tahlili, modellashtirish, matematik algoritmlar, diagrammalashtirish, eng kichik kvadrat metodi, funksional qiymat tahlili, internetdan foydalanish
Marketing va menejment va boshqa iqtisodiy fanlardagi metod va usullar	Anketa so‘rovnomalarini o‘tkazish, kuzatish, test o‘tkazish, axborot metodlari, ma’muriy-boshqaruv metodlari, iqtisodiy metodlar, sosial-psixologik metodlar, eksperiment o‘tkazish, raqobat, reglamentlashtirish, tavsiyalar taqdim etish, shaxsiy o‘rnak va tashabbus ko‘rsatish, ishontirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha xulosalar taqdim etish
Rejalashtirish (byudjetlashtirish) va strategik rejalashtirish metodlari	Moslanuvchan byudjetlashtirish (flexible budgets), desentralizasiya (decentralization), kapital byudjetlashtirish, koordinasiya qilish, funksional byudjet, master byudjet, byudjetlashtirishning nol bazisi, dasturiy va bajarilishlar byudjeti, me’yorlashtirish va limitlashtirish metodlari
Narxlashtirish va transfert narxlarni belgilash usullari	Tannarxga asoslangan transfert baho, javobgarlik markazlari, maksimum va minimum transfert baholari o‘rtasidagi farqlar proporsiyasi, ikkiyoqlama narxlashtirish (dual pricing), soliqlarni minimallashtirish uchun transfert baho

Muhokama.Tannarx buxgalteriya hisobida kosting tizimlari va metodlari muhim ahamiyat kasb etadi. **Costing tizimlari (tannarxni hisoblash tizimlari) deganda,** korxonada mahsulot, xizmat yoki ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq bajarilishlarga oid xarajatlarni yig‘ish, tasniflash, taqsimlash va aniqlash uchun qo‘llaniladigan usullar hamda tartiblar majmuasiga aytiladi.

Tannarx buxgalteriya hisobi costing tizimlari va metodlari mazmuni va mohiyatini quyidagi jadvalda rasmiylashtiramiz (2-jadval).

2-jadval

Tannarx buxgalteriya hisobi costing metodlari mazmuni va mohiyati

Kosting	Mohiyati
Tannarxning funksional kostingi (Activity-Based Costing (ABC))	– bevosita ishlab chiqarish hajmining jismoniy hajmiga (masalan, asbob-uskunalar o‘rnatish, materiallarni joylashtirish va boshqalar) bog‘liq bo‘lmagan faoliyat turlari (funksiyalari)ning ustama xarajatlarini mahsulot tannarxiga funksiayalar asosida taqsimlab, mahsulot tannarxini aniqlash usuli
Tannarxning buyurtmali kostingi (Job (order) Costing)	– tannarx hisobi ob’yekti bo‘lib hisoblangan mahsulot (ish, xizmat) ning o‘zi yoki mahsulotning katta bo‘lmagan partiyasi, ya’ni buyurtmalarning tannarxini aniqlash metodi
Ishlab chiqarishda jarayonli kosting (Process Costing)	– yalpi bir xildagi mahsulot tayyorlovchi yoki turli mahsulotlar tayyorlovchi, lekin jarayon doimiy qaytariladigan operasiyalarga bo‘linadigan ishlab chiqarish bo‘yicha har bir texnologik jarayonlar kesimida ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini aniqlash metodi
Kontrakt bo‘yicha tannarx kosting (Contract Costing)	– odatda ishlab chiqarilishi ko‘p vaqtini talab etadigan hamda katta birlikdagi mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonlariga nisbatan qo‘llaniladigan xarajatlarni buyurtmali tannarxni aniqlash usuli
Me’yoriy (normal) buyurtmali kosting	– to‘g‘ridan-to‘g‘ri material xarajatlar, to‘g‘ridan to‘g‘ri mehnat xarajatlari haqiqiy miqdori, ustama xarajatlar esa tannarx taqsimlash bazasining haqiqiy darajasi va budjetlashtirilgan ustama stavkasi asosida buyurtma tannarxini hisoblash usuli
Absorption costing (to‘liq tannarx usuli)	– ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmatlar) tannarxiga uni ishlab chiqarish bilan bog‘liq barcha xarajatlarni, ya’ni ham o‘zgaruvchan, ham doimiy ishlab chiqarish xarajatlarini yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri, ham bilvosita ishlab chiqarish xarajatlarini to‘liq kiritish asosida tannarxni hisoblash usuli. Bu tizimda xarajatlar ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan va ishlab chiqarishga bog‘liq bo‘lmagan xarajatlarga tasniflanadi. Tashqi axborot foydalanuvchilariga taqdim etiladigan moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot Absorption costing tizimi asosida tuziladi.

Variable Costing (Direct Costing) (O‘zgaruvchan xarajatlar bo‘yicha tannarxni aniqlash usuli)	– mahsulot (ish, xizmatlar) tannarxiga faqat o‘zgaruvchan ishlab chiqarish xarajatlarini kiritish asosida tannarxni hisoblash usulidir. Doimiy ishlab chiqarish xarajatlari o‘zgaruvchan xarajatlar bo‘yicha mahsulot tannarxini aniqlashda kiritilmaydi.
Standard cost (standart xarajatlar usuli)	– ishlab chiqarilgan bir birlik mahsulotga nisbatan oldindan belgilangan me’yorlar va standartlar asosida erishiladigan tannarxni aniqlash usuli bo‘lib, ushbu yordamida haqiqiy tannarx me’yordagi tannarx bilan solishtirilib nazorat qilib boriladi. Amaldagi haqiqiy xarajatlar standart xarajatlar bilan taqqoslanib, ularning farqlari (og‘ishlari) aniqlanadi hamda chetlanishlar tahlili o‘tkaziladi. Chetlanishlarning sabab va omillari o‘rganiladi.
Target Costing (mo‘ljaldagi tannarx kostingi)	– mahsulotning bozor narxi, rejalashtirilgan foyda hamda rejalashtirilgan tannarx asosida mo‘ljaldagi tannarxni aniqlash usuli. Haqiqiy tannarx mo‘ljaldagi tannarx bilan taqqoslanib, yuzaga kelgan farqlarning sabab va omillari o‘rganiladi.

Tannarx buxgalteriya hisobining prinsiplari deganda, axborotlarning foydaliligi va ishonchli bo‘lishligini ta’minlash maqsadida Tannarx buxgalteriya hisobini yuritish, tashkil etish hamda uning obyektlarini hisobga olish, metod va usullarini qo‘llashda rioya etilishi talab etiladigan qoidalarning majmuasiga aytiladi. Tannarx buxgalteriya hisobining asosiy prinsiplarini quyidagi jadvalda keltiramiz (3-jadval):

3-jadval

Tannarx buxgalteriya hisobining asosiy prinsiplari

Ingliz tilida	O’zbek tilida
PRINCIPLE A. The ability to identify, measure, interpret, and present costs as they relate to an organization’s economic flow of goods and services, both historically and in a forwardlooking context, is necessary for an informed understanding of the organizational drivers of profit and value	**A prinsip. Tannarxni** o‘lchash, talqin qilish va taqdim etish qobiliyatini tashkilotning tovar va xizmatlari iqtisodiy oqimi bilan bog‘liq holda ham tarixiy, ham istiqbolga yo‘naltirilgan nuqtai nazarda aniqlash foyda va qiymatni shakllantiruvchi tashkiliy omillarni (drayverlar) ongli ravishda tushunish учун zarur hisoblanadi.
PRINCIPLE B. Cost information should be prepared in a manner appropriate to the specific context and purpose of its use, of which there are three principal applications: • External reporting – historical and descriptive • Performance evaluation and analysis – interpretative and diagnostic • Planning and decision support – analytical and predictive	**B prinsip.** Tannarx to‘g‘risidagi ma’lumotlar undan foydalanishning aniq konteksti va maqsadiga mos tarzda tayyorlanishi kerak. Ushbu ma’lumotlardan foydalanishning uchta asosiy yo‘nalishi mavjud**:• Tashqi hisobot berish** – tarixiy va tavsifiy xarakterga ega; • **Faoliyatni baholash va tahlil qilish** – izohlovchi va diagnostik xarakterga ega; • **Rejalashtirish va qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash** – tahliliy va prognoz (bashorat) xarakteriga ega
PRINCIPLE C. Cost models should be designed and maintained to reflect the cause-and-effect interrelationships and the behavioral dynamics of the way the organization functions. The information needs of decision makers at all levels of the organization should be taken into account by incorporating an organization’s business and operational models, strategy, structure, and competitive environment	C PRINSIP. **Tannarx** modellari tashkilot faoliyat yuritish uslubidagi sabab-oqibat bog‘liqliklarini hamda xulq-atvor dinamikasini aks ettiradigan tarzda ishlab chiqilishi va doimiy ravishda yangilanib borilishi kerak. Tashkilotning biznes va operatsion modellari, strategiyasi, tuzilmasi hamda raqobat muhiti hisobga olinishi orqali tashkilotning barcha darajadagi qaror qabul qiluvchilari ehtiyojlari inobatga olinishi lozim
PRINCIPLE D. The design, implementation, and continuous improvement of costing methods, data collection, and systems should reflect a balance between the required level of accuracy and the cost of measurement (i.e., cost benefit tradeoff), based on the competitive situation of the organization	D PRINSIP. **T**izimlarni loyihalash, joriy etish hamda Tannarxni hisoblash usullari muntazam takomillashtirish, ma’lumotlarni yig‘ish va tizaimlari tashkilotning raqobat muhiti asosida zarur aniqlik darajasi bilan o‘lchash xarajatlari o‘rtasidagi muvozanatni (ya’ni xarajat va foyda o‘rtasidagi nisbatni) aks ettirishi kerak.
PRINCIPLE E. Cost information should be collected and analyzed systematically and in such a way as to ensure comparability over time, whether in a routine information system, or for a specific application and/or purpose.	E PRINSIP. Таннарх to‘g‘risidagi ma'lumotlar muntazam ravishda yig‘ilishi va tahlil qilinishi, shuningdek, odatiy axborot tizimida yoki muayyan qo‘llanish va maqsad uchun foydalanilganda ham vaqt o‘tishi bilan o‘zaro taqqoslanishini ta’minlaydigan tarzda tashkil etilishi kerak.

PRINCIPLE F. Definitions and sources of cost data, the operational and other non-financial data underpinning them, and the methods of calculating costs, should be transparent to users and recorded and capable of review, risk analysis, and assurance.	F PRINSIP. Tannarxga oid ma'lumotlarning ta'riflari va manbalari, ularning asosini tashkil etuvchi operatsion hamda boshqa moliyaviy bo'lmagan ma'lumotlar, shuningdek, xarajatlarni hisoblash usullari foydalanuvchilar uchun shaffof bo'lishi, hujjatlashtirilishi va qayta ko'rib chiqish, risk tahlili hamda tasdiqlash imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Bundan tashqari umumiy buxgalteriya prinsiplari bilan bir qatorda boshqaruv (menejmentlik) hisobining o'ziga xos prinsiplari ham mavjudki, bu uning mustaqil fan sifatida shakllanishida o'ta muhim rol o'ynaydi.

Xulosa va takliflar.

Tannarx buxgalteriya hisobi korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlarini shakllantirish, mahsulot va xizmatlar tannarxini aniqlash hamda boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta'minlashning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tannarxni shakllantirish jarayonida xarajatlarni to'g'ri tasniflash, hisob obyektlari bo'yicha guruhlash, bevosita va bilvosita xarajatlarni asoslangan holda taqsimlash hamda kalkulyatsiya qilish hisob ma'lumotlarining ishonchliligini belgilovchi asosiy omillardir.

Xalqaro tajriba tahlili tannarx buxgalteriya hisobida korxona faoliyatining xususiyatlaridan kelib chiqib turli metodlardan foydalanilishini ko'rsatdi. Xususan, buyurtmali kalkulyatsiya (Job Order Costing), jarayonli kalkulyatsiya (Process Costing), faoliyat turlari bo'yicha xarajatlarni hisobga olish (Activity-Based Costing), standart tannarx (Standard Costing), to'liq tannarx (Absorption Costing) hamda o'zgaruvchan xarajatlar asosidagi kalkulyatsiya kabi usullar mahsulot tannarxini aniqlashda keng qo'llanadi. Drury tomonidan ham job costing, process costing, absorption va variable costing hamda activity-based costing tannarx hisobining muhim yo'nalishlari sifatida tizimlashtirilgan.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari nuqtayi nazaridan IAS 2 "Inventories" talablariga muvofiq zaxiralar tannarxi xarid xarajatlari, qayta ishlash xarajatlari, jumladan bevosita mehnat va ishlab chiqarish ustama xarajatlari hamda zaxiralarni mavjud joyi va holatiga keltirish bilan bog'liq boshqa xarajatlardan shakllantiriladi. Bunda zaxiralar tannarx va sof realizatsiya qiymatining eng pasti bo'yicha baholanadi.

Shuningdek, tannarx hisobining zamonaviy metodologiyasida buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini faqat moliyaviy hisobotni shakllantirish vositasi sifatida emas, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun analitik axborot manbai sifatida shakllantirish zarur. Horngren va hammualliflarining yondashuvida ham xarajatlar turli boshqaruv maqsadlari uchun turlicha shakllantirilishi va tahlil qilinishi lozimligi ta'kidlanadi. Tannarx buxgalteriya hisobining metodini takomillashtirishda xalqaro tajribani o'rganish va mahalliy hisob amaliyotiga moslashtirish mahsulot tannarxini aniqroq shakllantirish, xarajatlarni boshqarish samaradorligini oshirish, resurslardan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish hamda korxonaning moliyaviy natijalarini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu sababli tannarx hisobini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishi sifatida xarajatlarni hisobga olish va kalkulyatsiya qilish jarayonlarini xarajat obyektlari, xarajat markazlari va xarajat drayverlari bilan o'zaro bog'lashga asoslangan integratsiyalashgan metodik yondashuvni shakllantirish taklif etiladi.

Adabiyotlar / Литература / References:

Abdusalomova N.B. (2019). Boshqaruv hisobi tizimida ichki nazorat va budjetlashtirish uslubiyatini takomillashtirish*: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent.*

Abdusalomova N.B., Temirov F.T. (2021). Moliyaviy hisob*: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot. – 283 b.*

Avloqulov A.Z. Karimov A.A., Islomov F.R., (2004). Buxgalteriya hisobi*: darslik. – Toshkent: Sharq NMAK. – 592 b.*

Cooper R., Kaplan R.S. (1998). Cost & Effect: Using Integrated Cost Systems to Drive Profitability and Performance. – *Boston: Harvard Business School Press,. – 368 p.*

Drury C. (2021). Management and Cost Accounting. *11th ed. – Andover: Cengage Learning. – 880 p.*

Garrison R.H., Noreen E.W., Brewer P.C. (2021). Managerial Accounting. *17th ed. – New York: McGraw-Hill Education. – 798 p. Mahsulot va davr xarajatlari bo‘yicha 30–31-betlar.*

Horngren C.T., Datar S.M., Rajan M.V. (2018). Cost Accounting: A Managerial Emphasis. *16th ed. – Harlow: Pearson – 971 p. Davr va mahsulot xarajatlari bo‘yicha 58–60-betlar.*

IFRS (2025). Foundation. IAS 2 Inventories. – *London: IFRS Foundation. – 15–16-paragraflar.*

Maxsudov B.Yu. (2018). Boshqaruv hisobida budjetlashtirish metodologiyasini takomillashtirish*: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: TMI.*

Tashnazarov S.N. (2018). Moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish*: monografiya. – GlobeEdit Publishing. – 280 p.*

Tashnazarov S.N. (2019). Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari*: darslik. – Toshkent: Iqtisod-moliya. – 584 b.*

Xasanov B.A. (2003). Boshqaruv hisobi: nazariya va uslubiyot. – *Toshkent: Moliya. – 248 b.*

Xolbekov R.O. (2011). Buxgalteriya hisobi nazariyasi*: darslik. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – 200 b.*